

“SMART Business” OMMAVIY OFERTASI

Toshkent shahri

Mazkur Oferta bilan Ustav asosida harakat qiluvchi Bosh direktor Ko Andrey Nikitovich tomonidan yuritiluvchi, “CENTER FOR DIGITAL TECHNOLOGY AND INNOVATION («RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR VA INNOVATSION ISHLANMALAR MARKAZI») aksionerlik jamiyati, bundan keyin matnda “CDTI”) deb nomlanadi, STIR: 306 344 019, yuridik manzil: Toshkent sh., Yashnabod tumani, Maxtumquli ko‘ch., 81, O‘zbekiston Respublikasi hududida ro‘yxatdan o‘tgan har bir Yuridik shaxs yoki Yakka tartibdagi tadbirkorga “SMART” Dasturiy Ta‘minotidan foydalanish va Qurilmaga, jumladan, onlayn nazorat kassa mashinalariga (bundan keyin matnda – Qurilma) xizmat ko‘rsatish va ta‘mirlash xizmatlariga ega bo‘lish uchun Oferta shartnomasini tuzishni taklif qiladi. Yuridik shaxs yoki Yakka tartibdagi tadbirkor (bundan keyin matnda – Buyurtmachi) tomonidan oferta Aksepti (qabul qilinishi), ofertada nazarda tutilgan xizmatlar va to‘lov shartlarining to‘liq qabul qilinishini va mazkur oferta asosida Buyurtmachi bilan ofertada keltirilgan shartlar asosida kelishuv tuzishga rozi ekanligini anglatadi (O‘zR FK 370-moddasiga muvofiq, oferta aksepti ofertada keltirilgan shartlar asosida kelishuv tuzishga teng sanaladi). Buyurtmachi Shartnoma tomoniga aylanadi va mazkur Oferta shartlari asosidagi huquq va majburiyatlarga ega bo‘ladi.

Yuqorida aytib o‘tilganlarga amal qilgan holda mazkur Oferta matnini diqqat bilan o‘qib chiqing, agar biror bir bandi bilan rozi bo‘lmasangiz, CDTI Sizga aksept uchun zarur bo‘lgan har qanday harakatlardan voz kechishni taklif qiladi.

1. 1. ATAMA VA TUSHUNCHALAR.

1.1. “SMART Business” (DT) Dasturiy ta‘minoti — tijorat maqsadlarida Litsenziat tomonidan qo‘llash uchun “SMART Business” yagona nomi ostida birlashgan Litsenziarning dasturiy kodi, ma‘lumotlari, buyruqlari va boshqa shu kabi dasturiy mahsulotlarining obyektiv shaklda taqdim etilgan yig‘indisi. “SMART Business” DT funksiyalarining to‘liq ro‘yxati Litsenziar Saytida keltirilgan. “SMART Business” DTga kiritilgan Asosiy Dasturiy mahsulotlar:

- a) “SMART Business” mobil ilovasi — bevosita vazifasi bo‘yicha funksionaldan foydalanishga mo‘ljallangan Smartfon va/yoki Planshet va/yoki Onlayn-NKMga o‘rnatiladigan dasturiy kod, ma‘lumotlar, buyruqlarning obyektiv shaklda taqdim etilgan yig‘indisi;
- b) “SMART Business” (DT) onlayn xizmati — “Internet” tarmog‘ida www.smart-ecosystem.uz (yoki www.smartpos.uz) manzilida joylashgan “SMART Business” onlayn-xizmatidan foydalanish;

1.2. **Buyurtmachining shaxsiy hisobi** — mazkur Shartnomadan kelib chiqadigan majburiyatlarni hisobga oluvchi texnologik vosita, u quyidagi rekvizitlarga ega: “Hisob qaydnomasi identifikatori”, “Hisob qaydnomasi paroli” — Tizim tomonidan Buyurtmachiga beriladigan maxfiy rekvizit.

1.3. **Shaxsiy kabinet** — Buyurtmachining www.smart-ecosystem.uz (yoki www.smartpos.uz) manzilida joylashgan virtual shaxsiy kabinetini, unga kirish Buyurtmachi tomonidan avtorizatsiya qilinganidan (faqat Buyurtmachiga ma‘lum bo‘lgan hisob qaydnomasi identifikatori va paroli kiritilganidan) so‘ng amalga oshiriladi va uning asosida Tomonlar mazkur Shartnomani ijro etish bilan bog‘liq bo‘lgan yuridik va texnik jihatdan ahamiyatli axborot (shu jumladan, tariflar, hisobotlar, buxgalteriya hujjatlari va boshqa elektron ko‘rinishdagi hujjatlar) bilan almashadilar.

1.4. **DTni yangilash** — “SMART Business” DTni o‘zgartiruvchi, almashtiruvchi va/yoki to‘ldiruvchi dasturiy ta‘minot. Barcha “SMART Business” DT yangilanishlari uning ajralmas tarkibiy qismlari sanaladi.

1.5. **Hisobot davri** — Buyurtmachi tomonidan mazkur Shartnoma predmetida nazarda tutilgan harakatlar amalga oshirilgan 30 (o‘ttiz) kalendar kun. Hisobot davri Toshkent vaqti bo‘yicha amalga oshiriladi.


1.6. **Tarif rejasi** — Buyurtmachiga “SMART Business” DT funksiyalaridan foydalanish bo‘yicha taqdim etilgan huquqlar hajmining ta‘rifini, taqdim etish shartlarini, mukofot hajmini nazarda tutadi.

1.8. **CDTI xizmat ko‘rsatish punkti** — CDTIning ma‘lum ichki muammolarni hal qilishga ixtisoslashgan bo‘limi.

1.9. **BHM** — O‘zbekiston Respublikasida o‘rnatilgan va turli hisob-kitoblar uchun foydalaniladigan asosiy hisob qiymati.

2. 2. OFERTAGA QO‘SHILISH.

2.1. Har qanday Yuridik shaxs yoki Yakka tartibdagi tadbirkor — Ofertaga qo‘shilishga va shu bilan quyidagi konklyudent harakatlarni bajargan holda Shartnoma tuzishga haqli:



- www.smart-ecosystem.uz (yoki www.smartpos.uz) saytida joylashtirilgan havolaga ko'ra, kabinetga o'tish va joylashtirilgan yo'riqnoma asosida ro'yxatdan o'tish, kabinetda tasdiqlash yo'li bilan Shartnoma shartlariga rozilik berish;
 - CDTIdan olingan takrorlanmaydigan kod va Yuridik shaxs yoki Yakka tartibdagi tadbirkor ERI (elektron raqamli imzosi) ni kiritish orqali jarayon yakunlanganini tasdiqlash.
 - CDTI xizmat ko'rsatish ofislarida ro'yxatdan o'tib, CDTIdan unikal kodni olish va ushbu kodni CDTI operatorining maxsus maydoniga kiritish;
 - Tanlangan xizmatlar va\yoki Tarif rejasiga mos ravishda qulay to'lov usuli yordamida mukofotni to'lash.
- 2.2. Ro'yxatdan o'tish vaqtida Saytda ko'rsatilgan o'lehamda aniq va ishonchli ma'lumotlarni taqdim etish lozim. Ro'yxatdan o'tish jarayonini yakunlagandan so'ng Buyurtmachi "SMART Business" DT funksiyalaridan foydalanishi mumkin. Buyurtmachi o'z logini va paroli xavfsizligini ta'minlash, shuningdek, Buyurtmachi logini va paroli yordamida bajariladigan barcha harakatlar uchun javobgar sanaladi. Buyurtmachi o'z logini va paroli yordamida noqonuniy kirilganlik holati to'g'risida CDTIga xabar berishi lozim. Buyurtmachi Shaxsiy kabinetdagi har ish jarayonidan so'ng o'z paroli bilan ishni yakunlashi lozim.
- 2.3. Mazkur Qoidalarning 2.1. bandida ko'rsatilgan konklyudent harakatlarning biri bajarilganidan so'ng quyida keltirilgan shartlar asosida Shartnoma tuziladi. Bunda, mazkur Shartnoma Tomonlar yozma ravishda tuzgan Shartnomaga teng sanaladi.
- 2.4. Mazkur Shartnomani tuzayotib, Buyurtmachi o'z harakatlari mohiyatini to'liq anglashi va ularni boshqara olishi, xato fikr, yolg'on, zo'ravonlik, tahdid ostida ishlamasligi lozim. Shartnoma Buyurtmachi tomonidan o'z xohishiga ko'ra, mazkur Ommaviy oferta shartlari bilan oldindan to'liq tanishgan holda tuzilgan. Buyurtmachi ro'yxatdan o'tish vaqtida taqdim etilgan ma'lumotlar mazmuni va xolisligi uchun javobgar sanaladi.
- 2.5. Buyurtmachi Oferta aksept qilinishidan avval uning shartlari, taqdim etilayotgan xizmatlar va tarif rejaları bilan tanishib chiqqanini tasdiqlaydi.

3. SHARTNOMA PREDMETI.

- 3.1. Mazkur Shartnoma shartlariga binoan CDTI Buyurtmachiga O'zbekiston Respublikasi hududida "SMART Business" DTdan tanlangan xizmatlar va\yoki tarif rejasini hajmida, qisman yoki to'liq dekompiyatsiyasiz, mazkur Shartnomaning amal qilish muddati tugagunga qadar foydalanish huquqini taqdim etadi. Bunda, Buyurtmachi texnik xizmat ko'rsatish, qurilmani foydalanishga topshirish ko'zda tutilgan xizmatlar va\yoki tarif rejasini tanlagan taqdirda, Buyurtmachining Qurilmasiga texnik xizmat ko'rsatiladi.
- 3.2. Buyurtmachi mazkur Shartnoma bo'yicha taqdim etilgan huquq va xizmatlarni vaqtida to'lash majburiyatini o'z zimmasiga oladi.
- 3.3 Hisobot davridagi mukofot turi, hajmi va summasi Shartnoma Ilovasida belgilangan, unda Shartnomaning ajralmas qismi sanaluvchi taqdim etilayotgan xizmatlar, tarif rejasini narxi aks etgan.
- 3.4. Texnik xizmat ko'rsatish uchun Buyurtmachining Qurilmasi, ya'ni Shartnoma tuzish vaqtida yaxshi holatda foydalanishga topshirilgan qurilma qabul qilinadi.
- 3.5. Qurilmani ta'mirlash narxi, shu jumladan, foydalanishga topshirilgan qurilmani ta'mirlash narxi mazkur Shartnomada ko'rsatilgan narxga kirmaydi. Qurilmani ta'mirlash CDTIning hamkori - "Green energy solution" MCHJ (keyingi o'rinlarda Servis markazi) tomonidan www.smart-ecosystem.uz (Support24 bo'limi) saytida joylashtirilgan xizmat ko'rsatish/diagnostika va ta'mirlash ishlarini bajarish Ofertasiga muvofiq, shuningdek, CDTI xizmat ko'rsatish punktlarida amalga oshiriladi. Qurilmani ta'mirlash uchun haq to'lash bilan, Buyurtmachi Oferta matni bilan to'liq tanishganligini va uning barcha shartlarini qabul qilishini tasdiqlaydi. Agar qurilmadagi nosozliklarni bartaraf etishning iloji bo'lmasa (mutaxassisning xulosasiga ko'ra) yoki qurilmani joyida ta'mirlash uchun sharoit bo'lmasa, nosoz qurilma Sevrisk markaziga topshirilishi va ta'mirlanishi uchun Buyurtmachi tomonidan CDTI xizmat ko'rsatish punktlariga yetkazib berilishi kerak. Ta'mirlash muddati Qurilmani ta'mirlash uchun 100% oldindan to'lov amalga oshirilgan kundan boshlab kamida 5 (besh) ish kunini tashkil etadi. Qurilma ta'mirlangan va Buyurtmachiga qaytarilgandan so'ng, 3 (uch) ish kuni ichida Buyurtmachi tomonidan qurilmaning ta'mirlanishi bo'yicha yozma da'volar qabul qilinmasa, ish to'liq bajarilgan deb hisoblanadi va alohida Dalolatnoma tuzilmasligi mumkin bo'ladi.
- 3.6. Agar "SMART Business" DTdan foydalanish va\yoki Qurilmaga texnik xizmat ko'rsatish huquqi taqdim etilgan hisobot oyidan keyingi 3 (uch) kalendar kun ichida Buyurtmachi tomonidan yozma e'tirozlar tushmasa, xizmatlar to'liq hajmda bajarilgan sanaladi, bunda alohida Dalolatnoma tuzilmasligi mumkin.



4. TOMONLARNING HUQUQLARI VA MAJBURIYATLARI.

4.1. CDTI quyidagi majburiyatlarni o'z zimmasiga oladi:

4.1.1. Buyurtmachiga "SMART Business" imkoniyatlari va, Buyurtmachi tomonidan qabul qilingan xizmatlar hajmi va\yoki tarif rejasi shartlariga muvofiq, unda telefon, elektron pochta yoki boshqa aloqa vositalari orqali ishlash bo'yicha konsultatsiya o'tkazish;

4.1.2. tanlangan va to'langan xizmatlar va\yoki tarif rejasiga muvofiq, "SMART Business" DTdan foydalanish imkoniyatini ta'minlash;

4.1.3. Buyurtmachining shaxsiy kabinetiga va to'lov holatiga kirishini ta'minlash;

4.1.4. tanlangan xizmatlar va\yoki tarif rejasi hajmiga muvofiq, "SMART Business" DTdan foydalanish imkoniyatini taqdim etish uchun to'lov va hisob fakturalari uchun hisoblarni taqdim etish;

4.1.5. qurilmani foydalanishga topshirish ko'zda tutilgan tarif rejasi tanlangan holatda, ushbu tarif rejasi tanlangan paytdan boshlab 1 (bir) ish kuni ichida qurilmani Buyurtmachiga yaroqli holatda topshirish. Qurilmaning topshirishga tayyorligi to'g'risida bildirishnoma yuborish talab etilmaydi. Qurilmaning topshirilganligi, yaroqliligi tekshirilgani Buyurtmachining qabul qilish-topshirish Dalolatnomasini imzolashi bilan tasdiqlanadi;

4.1.6. qurilmalarga texnik xizmat ko'rsatish, shu jumladan soliq organlarida ro'yxatdan o'tkazish va hisobdan o'chirish;

4.1.7. qurilmalarga texnik xizmat ko'rsatishni ta'minlash, ulardan foydalanish va qo'llash bo'yicha maslahat berish.

4.3. CDTI quyidagi huquqlarga ega:

4.2.1. vaqtinchalik, zaruriy ishlar o'tkazilayotgan muddatda, qurilma, dasturiy ta'minotni almashtirish yoki tarmoqning ishlashi va yaxshilanishi uchun rejali ishlarni o'tkazish zarurati tufayli "SMART Business" Sayti yoki DTga kirish imkoniyatini to'liq yoki qisman to'xtatish;

4.2.2. Buyurtmachi tomonidan mazkur Shartnoma shartlari bajarilmagan, shu jumladan, Shartnoma bo'yicha to'lov o'z vaqtida amalga oshirilmagan taqdirda, vaqtincha, Shartnoma bo'yicha qoidabuzarliklarni bartaraf etish muddati davomida, Shartnomada nazarda tutilgan xizmatlardan foydalanish huquqini to'liq yoki qisman to'xtatib qo'yish. Har qanday holatda ham yuqorida keltirilgan vaziyatlar yuzaga kelganda, Shartnoma bo'yicha to'lov qayta hisob-kitob qilinmaydi va qaytarib berilmaydi;

4.2.3. mazkur Shartnoma bo'yicha o'z majburiyatlarini bajarishi uchun uchinchi shaxslarni jalb qilish;

4.2.4. foydalanish uchun taqdim etilgan qurilmadan foydalanilgan taqdirda, qurilmani qaytarish dalolatnomasi imzolangan paytdan e'tiboran 30 (o'ttiz) kun ichida Buyurtmachiga dalolatnoma imzolangan paytda tashqi ko'rikdan o'tkazish yo'li orqali aniqlashning iloji bo'lmagan kamchiliklar aniqlanganligi to'g'risida xabardor qilish, shuningdek, ushbu qurilmaning texnik holati dalolatnomasini ilova qilgan holda Shartnomada nazarda tutilgan tartibda kamchiliklarni bartaraf etishga ketadigan xarajatlarni qoplash bo'yicha talabnomani ilgari surish. Qurilmani tekshirish paytida aniqlangan kamchiliklarni bartaraf etish uchun xarajatlarni qoplash miqdori CDTI xizmat ko'rsatish ofislaridagi preyskuranti yordamida belgilanadi;

4.2.5. Buyurtmachining manziliga axborot va reklama jo'natmalarini yuborish (SMS-xabar, e-mail xabar tarqatmasi, push-xabar tarqatmasi, messengerlar, ijtimoiy tarmoqlar, shaxsiy kabinetga xabar tarqatmalari, aksion, chegirmali, reaktivatsion, triggerli xabar tarqatmalari, promo xabar tarqatmalari, kontent xatlari va boshqalar), Buyurtmachini ogohlantirmasdan Buyurtmachiga tegishli onlayn-NKM cheklarida axborot va reklama takliflarini shakllantirish. Buyurtmachi bilan hamkorlik to'g'risidagi ma'lumot maxfiy sanalmaydi va reklama maqsadlarida foydalanilishi mumkin;

4.2.6. Buyurtmachidan kerakli ma'lumotlarni so'rash;

4.2.7. shartnoma shartlariga, xizmatlar ro'yxatiga, tarif rejalariga bir tomonlama o'zgartirish va\yoki qo'shimchalar kiritish.

4.2.8. Buyurtmachidan Qurilma ekspluatatsiyasi bilan bog'liq masalalar bo'yicha ma'lumotnoma va tushuntirishlar talab qilish;

4.2.9. Buyurtmachiga Qurilma ekspluatatsiyasi vaqtida yo'l qo'yilgan xatoliklar va ushbu qoidabuzarliklarni bartaraf etish choralarini tushuntirgan holda ko'rsatmalar berish;

4.2.10. Buyurtmachi mazkur Shartnoma shartlarini bajarmagan, shu jumladan, Qurilmaga texnik xizmat ko'rsatish bandidan iborat tanlangan tarif rejasi uchun to'lovni o'z vaqtida amalga oshirmagan taqdirda, CDTI bilan kelishilgan holda texnik xizmat ko'rsatishni to'xtatish va Qurilma faoliyatini bloklash.

4.3. Buyurtmachi quyidagi majburiyatlarni o'z zimmasiga oladi:

4.3.1. "SMART Business" DTdan servis faoliyatini qasddan buzish maqsadida foydalanmaslik, shuningdek, undan foydalanishda O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari yoki xalqaro huquq normalari talablariga rioya qilish, shu bilan birga, Buyurtmachining aybi bilan CDTI nazorat qiluvchi organlar tomonidan javobgarlikka tortilgan taqdirda,



Buyurtmachi da'vo yuborilgan kundan boshlab 10 kun ichida CDTI kamomadlarini, shu jumladan, jarimalarning barchasini to'liq miqdorda qoplash;

4.3.2. mazkur Shartnomadagi ehtimoliy o'zgarishlarni mustaqil ravishda www.smart-ecosystem.uz (yoki www.smartpos.uz) saytida kuzatib borish;

4.3.3. o'z vaqtida, hisobot davri boshlanishidan oldin, mazkur Shartnoma shartlariga va tanlangan xizmatlar ro'yxatiga va/yoki tarif rejasiga muvofiq tartibda va muddatda to'lovni amalga oshirish. Buyurtmachi bu haqda oldindan xabardor qilinadi va mazkur Shartnoma bo'yicha to'lov o'z vaqtida amalga oshirilmagan taqdirda "SMART Business" dasturiy ta'minotidan foydalanishni cheklash, texnik xizmat ko'rsatish xizmatlarini to'xtatib turish va Qurilmani blokirovka qilishlariga rozilik beradi (tarif rejasini tanlashda, shu jumladan, Qurilmaga texnik xizmat ko'rsatish, foydalanish uchun qurilmalar bilan ta'minlash). Agar Buyurtmachi CDTIga bog'liq bo'lmagan sabablarga ko'ra Shartnoma bo'yicha xizmatlardan foydalanmasa, to'lov Buyurtmachi tomonidan to'liq amalga oshiriladi;

4.3.4. shartnoma bo'yicha "SMART Business" dan foydalanish huquqini uchinchi shaxslarga, shu jumladan, ularga login va parolni berish orqali o'tkazmaslik;

4.3.5. "SMART Business" dasturidan foydalanish va Qurilmaning ishlashi uchun Internetga mustaqil ravishda kirishni ta'minlash;

4.3.6. "SMART Business" dasturiy ta'minotiga kirishda barcha nosozliklar, qoidabuzarliklar va uzilishlar to'g'risida, shuningdek, qurilmaning ishida, shu jumladan, qurilmaga texnik xizmat ko'rsatish, foydalanish uchun qurilmalar bilan ta'minlashni nazarda tutuvchi tarif rejasini tanlash holatlarida darhol xabar berish;

4.3.7. o'zingiz va vakolatli shaxslaringiz to'g'risida kerakli ishonchli ma'lumotlarni (tafsilotlarni) taqdim etish va ularni tegishli hujjatlarning asl yoki ko'chirma nusxalari bilan tasdiqlash;

4.3.8. manzil, to'lov rekvizitlari va boshqa ma'lumotlar o'zgartirish taqdirda, o'zgartirish kiritilgan paytdan e'tiboran 2 (ikki) ish kuni ichida tegishli hisobga olish shakllariga o'zgartirishlar kiritish uchun bu haqda CDTIning xabardor qilish. O'zgarishlar to'g'risidagi xabarnoma o'z vaqtida yuborilmagan taqdirda, Buyurtmachi o'zgartirilgan ma'lumotlardan foydalanish bilan bog'liq xavf va salbiy oqibatlar uchun javobgar sanaladi;

4.3.9. Qurilmaga texnik xizmat ko'rsatishni, foydalanish uchun qurilmalar bilan ta'minlashni o'z ichiga olgan tarif rejasini tanlashda quyidagilar bajarilishi kerak:

4.3.9.1. foydalanish uchun taqdim etilgan Qurilmaning ishlash qoidalari va shartlariga rioya qilish, Qurilmaning operatsion hujjatlariga muvofiq sarf materiallari bilan ishlashini ta'minlash, shuningdek, o'quv materiallari bilan to'liq tanishish. Ushbu shartlar buzilgan taqdirda, CDTI qurilmaning to'g'ri ishlashi uchun javobgar emas;

4.3.9.2. foydalanish uchun taqdim etilgan qurilmadan maqsadga muvofiq foydalanish, uning xavfsizligi, yaxlitligini ta'minlash uchun barcha zarur choralarini ko'rish, foydalanish hujjatlariga muvofiq qurilmaning ishlash qoidalari va shartlariga rioya qilish, qurilmaning sarf materiallari bilan ishlashini ta'minlash, qurilmani uchinchi shaxslarga foydalanishga topshirmaslik. Ushbu shartlar buzilgan taqdirda, CDTI qurilmaning to'g'ri ishlashi uchun javobgar sanalmaydi va Buyurtmachi shartnoma shartlariga muvofiq zararni qoplash majburiyatini zimmasiga oladi;

4.3.9.3. foydalanish uchun taqdim etilgan Qurilmada plombalarning to'g'ri ishlashini ta'minlash, shuningdek, Qurilmadan faqat texnik xizmat ko'rsatish uchun qabul qilinib, soliq organlarida ro'yxatdan o'tkazilgandan keyingina foydalanish;

4.3.9.4. ish joylarini normativ hujjatlar talablariga muvofiq jihozlash, xodimlarga Qurilmada ishlashga o'rgatish.


4.3.9.5. Qurilma, shu jumladan, foydalanish uchun taqdim etilgan qurilmalarga texnik xizmat ko'rsatish va ta'mirlash bilan bog'liq hujjatlarni, saqlash, hisobga olish va hisobdan chiqarishni tashkillashtirish.

4.3.9.6. Qurilma texnik va dasturiy tekshiruvlarini o'tkazish, Qurilma, shu jumladan, foydalanish uchun taqdim etilgan qurilmalardan to'g'ri foydalanish bo'yicha ko'rsatmalar va yo'riqnomalarga rioya qilish imkoniyatini ta'minlash;

4.3.9.7. har qanday nosozliklar, shu jumladan, Qurilma, foydalanish uchun taqdim etilgan qurilmalar faoliyati davomida muhrga zarar yetkazilgani aniqlangan taqdirda bu to'g'rida zudlik bilan xabar berish va Qurilmada muhr buzilgan yoki boshqa nosozliklar aniqlangan taqdirda Qurilmadan foydalanishni darhol to'xtatish, shuningdek, Qurilmadan foydalanishni taqiqlash;

4.3.9.8. Qurilma, shu jumladan, foydalanish uchun taqdim etilgan qurilmalar buzilgan taqdirda darhol CDTI xizmat ko'rsatish punkti bilan bog'lanish hamda diagnostika va keyingi ta'mirlash uchun Qurilmani taqdim etish;

4.3.9.9. foydalanish uchun qurilmalar bilan ta'minlash nazarda tutilmagan tarif rejasiga o'tishda, boshqa tarif rejasiga o'tgandan keyin 1 (bir) ish kuni ichida qaytarish dalolatnomasi bo'yicha ilgari ishlatilgan qurilmani soz va to'g'ri holatda qaytarish;



4.3.9.10. agar Shartnoma shartlarini bajarishdan bosh tortilsa yoki mazkur Shartnomada nazarda tutilgan asoslar bo'yicha foydalanishga topshirilgan qurilmani qaytarish talab qilinsa, qurilmani ishchi holatda 1 (bir) ish kuni ichida qaytarish.

4.3.9.11. foydalanish uchun taqdim etilgan qurilma yo'qolgan, buzilgan taqdirda, qurilmaning qabul qilish-topshirish dalolatnomasida aks ettirilgan to'liq narxini qoplash;

4.3.9.12. foydalanishga topshirilgan qurilmalar buzilgan, shikastlangan yoki ishdan chiqqan taqdirda, qurilmani o'z mablag'lari hisobidan ta'mirlash (transport xarajatlarini to'lash, sarf materiallari va jihozlarni ta'mirlash) yoki qurilmani qabul qilish dalolatnomasida aks ettirilgan qurilmaning to'liq qiymatini to'lash;

4.3.9.13. Fiskal modul buzilgan, shikastlangan yoki yo'qolgan taqdirda, CDTI zararini kechiktirmay 50% BHMda to'lash.

4.3.10. hisob-faktura\dalolatnoma olingan kundan boshlab 5 (besh) ish kuni ichida uni qabul qilish yoki xizmatlar\ishlarni qabul qilishdan asosli ravishda voz kechish to'g'risida xabarnoma yo'naltirish. Agar 5 (besh) ish kuni ichida Buyurtmachi hisob-faktura\xizmatlar\ishlarni taqdim etish to'g'risidagi aktni tasdiqlamagan yoki qabul qilishdan asosli ravishda voz kechish to'g'risida xabarnoma yo'naltirmagan bo'lsa, ishlar\xizmatlar mazkur Shartnoma shartlariga muvofiq o'z vaqtida va to'g'ri bajarilgan va Buyurtmachi tomonidan to'liq qabul qilingan deb hisoblanadi, akt esa barcha Tomonlar tarafidan imzolangan deb tan olinadi.

4.4. Buyurtmachi quyidagi huquqlarga ega:

4.4.1. "SMART Business" dasturiy ta'minotining imkoniyatlari, Qurilma ishlashi (texnik xizmat ko'rsatish, qurilmani foydalanishga topshirish nazarda tutilgan tarif tanlangan taqdirda) bo'yicha har qanday usulda, shu jumladan, elektron pochtaga so'rov yuborish orqali xolis axborot olish.

4.4.2. mazkur Shartnomani bajarish bilan bog'liq barcha masalalar bo'yicha CDTI xizmat ko'rsatish punktlariga va uning vakolatli shaxslariga murojaat qilish;

4.4.3. xizmatlar ro'yxatini va\yoki tarif rejasini o'zgartirish;

4.4.4. mazkur Shartnomada nazarda tutilgan tartibda shartnomani bekor qilish.

4.5. Buyurtmachi mazkur Shartnoma shartlarini bajarmagan taqdirda, CDTI "SMART Business" dasturiy ta'minotidan va nazarda tutilgan xizmatlardan foydalanish huquqini berish uchun, shuningdek, Qurilma, foydalanishga taqdim etilgan qurilmalarning sifati uchun javobgar emas.

4.6. Buyurtmachi tomonidan texnik xizmat ko'rsatish, foydalanish uchun qurilmalar bilan ta'minlash nazarda tutilgan tarif rejasi tanlangan bo'lsa, mazkur Shartnomaning amal qilish muddati davomida, Qurilmaga texnik xizmat ko'rsatish yoki ta'mirlash bo'yicha CDTI va "Green energy solution" MCHJdan tashqari boshqa korxonalar yoki jismoniy shaxslarning xizmatlaridan foydalanish huquqiga ega emas.

4.7. Buyurtmachi oldindan ogohlantirilmasdan axborot va reklama byulletenlari (SMS-xabarlar, e-mail jo'natmalar, push-jo'natmalar, messenjerlar, ijtimoiy tarmoqlarga, shaxsiy kabinetga jo'natmalar, reklamali, chegirmali, reaktivatsion, triggerli jo'natmalar, promo-jo'natmalar, kontent xatlar va boshqalar) ni olishga so'zsiz rozilik bildiradi, Buyurtmachiga tegishli Qurilma tomonidan shakllangan cheklarda axborot va reklama takliflari, shuningdek, "SMART Business" dasturiy ta'minoti bilan bog'liq tizim xabarlari va bildirishnomalari aks etishiga shartsiz rozilik beradi.

4.8. Mazkur Shartnoma ijrosini ta'minlash maqsadida Buyurtmachi o'z savdo belgisi, tijorat belgisi va boshqa har qanday individualizatsiya vositalaridan CDTI xizmatlarini sotishga qaratilgan reklama maqsadlarida foydalanilishiga qo'shimcha rozilik so'ralmagan holda ruxsat beradi.

4.9. Buyurtmachi xizmatlar va\yoki tarif rejasi uchun to'lov muddati tugagashiga qadar xizmatlar va\yoki tarif rejasi uchun to'lovni amalga oshirmagan taqdirda, CDTI Buyurtmachining saytga kirishini va "SMART Business" dasturidan foydalanishni, qolaversa Buyurtmachiga texnik xizmat ko'rsatishni to'xtatib turish huquqiga ega (agar Buyurtmachining tarif rejasi texnik xizmat ko'rsatish, foydalanish uchun qurilmalar bilan ta'minlashni nazarda tutgan bo'lsa). Faqat qarzni to'liq to'lash orqali Saytga kirishni davom ettirish, "SMART Business" dasturidan foydalanish va xizmatlarni qayta tiklash mumkin.

4.10. CDTI "SMART Business" dasturidan foydalanish paytida yuzaga kelgan uzilishlar (shu jumladan, favqulodda vaziyatlar, profilaktika ishlari), aloqa kanallari, aloqa liniyalarining qoniqarsiz sifati tufayli Buyurtmachi qurilmasining buzilishi, yetkazilgan ma'lumotlar sifati yoki tezligining qoniqarsizligi, har qanday ma'lumotlarning to'liq yoki qisman yo'qolishi, yoki Buyurtmachiga yetkazilgan har qanday boshqa zararlar uchun javobgar emas. Ushbu holatda amalga oshirilgan to'lov qaytarilmaydi va boshqa xizmatlarga o'tkazilmaydi.


4.11. Qurilmani foydalanishga topshirish nazarda tutilgan tarif rejasidan foydalanilganda qurilmani qaytarish va ta'mirlash:



- 4.11.1. qurilmani qaytarish Buyurtmachi tomonidan qurilmani CDTI xizmat ko'rsatish punktiga ish vaqtida qaytarish orqali amalga oshiriladi;
- 4.11.2. Buyurtmachi qurilmani qaytarib beruvchi shaxsqa qurilmaga kirish huquqini berganida, shaxs qurilmani topshirish, shuningdek, qurilmani qaytarib berish dalolatnomasini imzolash uchun tegishli vakolatga ega hisoblanadi. Qurilmani qaytarib beruvchi shaxs tomonidan qurilmani qaytarish to'g'risidagi dalolatnoma imzolanganidan so'ng, qurilmani qaytarish dalolatnomasida ko'rsatilgan ma'lumotlar bo'yicha da'volar qabul qilinmaydi.
- 4.11.3. Buyurtmachining qurilmani qaytarish majburiyati mazkur Shartnomada nazarda tutilgan asoslar bo'yicha shartnomani ijro etishdan bir tomonlama voz kechish to'g'risida bildirishnoma yuborilgan yoki olingan kundan boshlab 1 (bir) ish kunidan kechikmay bajarilishi lozim.
- 4.11.4. CDTIning vakolatli vakili qurilmani qaytarib, qaytarish to'g'risidagi Dalolatnoma imzolangan paytdan boshlab qurilmalar topshirilgan deb hisoblanadi.
- 4.11.5. Buyurtmachining savdo nuqtasida Internet aloqasi bo'lmagan taqdirda, qurilma almashtirilmaydi.
- 4.11.6. qurilmaning nosozligiga oid barcha masalalar bo'yicha Buyurtmachi CDTI va/yoki "Green energy solution" MCHJga murojaat qiladi, ular o'z vaqtida mazkur Shartnomaning tartibi va shartlariga muvofiq nosozliklarni bartaraf etish uchun barcha zarur choralarni ko'radilar.
- 4.11.7. qurilmaning nosozligi buzilgani aniqlangan taqdirda, Buyurtmachi 1 (bir) kalendar kunidan kechiktirmay ushbu nosozlik sabablarini aniqlash, qurilmani ta'mirlash yoki Buyurtmachi hisobidan almashtirish uchun CDTI va/yoki "Green energy solution" MCHJga xabar beradi. Buyurtmachi qurilmani mustaqil ravishda ta'mirlashga urinmasligi lozim, aks holda CDTI yetkazilgan zarar va qurilmaning to'liq narxini qoplashni talab qilishga haqlidir.
- 4.11.8. qurilmani ta'mirlash Buyurtmachining mablag'lari hisobidan amalga oshiriladi. Qurilmalarni ta'mirlash bo'yicha amalga oshirilgan ishlar narxi "Green energy solution" MCHJda belgilangan narxlarga muvofiq belgilanadi. Narxlar "Green energy solution" MCHJ tomonidan mustaqil ravishda belgilanadi.
- 4.11.9. sarf materiallari narxi, qurilmani qayta tiklash xarajatlari mazkur Shartnoma narxiga kiritilmagan. Agar qurilmani tiklash bo'yicha qo'shimcha ta'mirlash zarurati tug'lsa, Buyurtmachi qo'shimcha ravishda qurilmani ta'mirlash xarajatlarini "Green energy solution" MCHJ hisob raqamiga to'laydi. "Green energy solution" MCHJ qurilmani ta'mirlash xizmatlari narxini bir tomonlama o'zgartirish huquqiga ega.
- 4.11.10. agar qurilma Buyurtmachining aybi bilan ishlaymay qolsa va qayta tiklanmasa, Buyurtmachi 1 (bir) ish kuni ichida qurilmaning qabul qilish va topshirish dalolatnomasida ko'rsatilgan to'liq narxini qoplaydi. Shundan so'ng, buzilgan va tiklanmaydigan qurilmaning to'liq qiymati qoplangan kundan boshlab 5 (besh) ish kuni ichida xizmatga yaroqli qurilma bilan almashtiriladi.
- 4.11.11. mazkur Shartnomaga muvofiq, qurilmani topshirish bo'yicha har qanday harakatlar qabul qilish va topshirish (qaytarish) dalolatnomasi bilan rasmiylashtiriladi.

5. HISOB-KITOB TARTIBI.

- 5.1. Shartnoma bo'yicha mukofot qiymati Oferta Aksepti va Shaxsiy Kabinetda ko'rsatilgan Buyurtmachi tomonidan tanlangan xizmatlar va/yoki tarif rejasi bilan belgilanadi. Hisobot davri uchun CDTI to'lovi miqdori qat'iy belgilanadi va/yoki to'lov sanasida O'zbekiston Respublikasida belgilangan BHMga nisbatan foizlarda ifodalanadi (хисобот даври бошланган кун).
- 5.2. Hisobot davri uchun tanlangan xizmatlar va/yoki tarif rejasi uchun mukofot puli mazkur Shartnoma qabul qilingan kundan boshlab 1 (bir) ish kuni ichida CDTI joriy hisob raqamiga 100% oldindan to'lov usuli bilan to'lanadi. Keyingi hisobot davrlari uchun to'lov Buyurtmachi tomonidan hisobot davri uchun 100% oldindan to'lov tartibida, oldingi hisobot davri uchun to'lov muddati tugaguniga qadar amalga oshiriladi. Buyurtmachi bir necha hisobot davri uchun oldindan to'lovni amalga oshirish huquqiga ega.
- 5.3. Mazkur Shartnoma bo'yicha to'lov CDTI hisob raqamiga naqdsiz pul tartibida amalga oshiriladi. Hisob-kitob O'zbekiston Respublikasi so'mida amalga oshiriladi. To'lov sanasi CDTI joriy hisob raqamiga mablag' kelib tushgan sana hisoblanadi. Agar zarurat tug'lsa, Buyurtmachi to'lov nusxasini qabul qilinganligi to'g'risida bank qaydnomasi bilan birga taqdim etadi.
- 5.4. Birlamchi sotib olingan xizmatlar va/yoki tarif rejasi mazkur Shartnomada ko'rsatilgan CDTI joriy hisob raqamiga to'lov kelib tushgan kundan boshlab amal qilishni boshlaydi.
- 5.5. Xizmatlar turi va/yoki tarif rejasi o'zgartirilganda, agar yangi xizmatlar va/yoki tarif rejasi boshlanish kunida oldingi xizmatlar va/yoki tarif rejasi hali tugamagan bo'lsa, mazkur Shartnomaning 5.2.-bandida nazarda tutilgan barcha talablar bajarilgan holda ularning amal qilish muddati tugaganidan keyingi kundan yangi xizmatlar va/yoki tarif rejasi amal qila boshlaydi.



5.6. Oldingi to'langan hisobot davri tugashiga qadar tanlangan xizmatlar va\yoki tarif rejasi uchun to'lov amalga oshirilmagani "SMART Business" dasturiy ta'minotidan foydalanish imkoniyatini cheklash va Qurilmaga texnik xizmat ko'rsatish xizmatlarini, shu jumladan, foydalanish uchun taqdim etilgan xizmatlarni to'xtatib turish uchun asos bo'la oladi. Ushbu harakatlar mazkur Shartnomaga muvofiq CDTI majburiyatlarining buzilganligini anglatmaydi. Faqat qarzni to'liq qoplash orqaligina "SMART Business" dasturidan foydalanish va Qurilma texnik xizmat ko'rsatish imkoniyatini tiklash mumkin.

5.7. Mazkur Shartnomaning amal qilish davrida tomonlar hisoblarni taqdim etish va to'lash orqali moliyaviy shartlarni kelishib oladilar. Mazkur Shartnoma doirasida hisoblarni taqdim etish va to'lash cheksiz marotaba amalga oshirilishi mumkin.

5.8. Texnik xizmat ko'rsatish, foydalanish uchun qurilmani taqdim etishni o'z ichiga olgan tarif rejasini tanlashda mazkur Shartnomaga muvofiq mukofot narxi foydalanish uchun taqdim etilgan qurilma narxi, Qurilmani ta'mirlash xarajatlari, transport, sarf materiallari xarajatlari, tiklash bo'yicha ta'mirlash ishlari xarajatlarini o'z ichiga olmaydi. Buyurtmachi tomonidan Qurilma ta'mirlash ishlari, shu jumladan, foydalanish uchun taqdim etilgan qurilma narxini to'lash Servis markazining joriy hisob raqamiga Servis markazi Ofertasining shartlariga muvofiq amalga oshiriladi.

Qurilma ishida buzilish, nosozlik aniqlansa, Buyurtmachi diagnostika va keyingi ta'mirlash ishlari uchun Qurilmani CDTI xizmat ko'rsatish punktiga taqdim etadi. Murojaat qilingan kuni Servis markazi Buyurtmachiga transport xarajatlarini qoplash uchun hisob taqdim etadi, bu Buyurtmachiga foydalanish uchun taqdim etilgan qurilmani Toshkent shahridagi Servis markaziga yetkazib berishni qoplaydi. Transport xarajatlari Buyurtmachi tomonidan 1 (bir) ish kuni ichida to'lanishi lozim. Buyurtmachiga foydalanish uchun taqdim etilgan Qurilma, qurilma jo'natilib, diagnostika qilinganidan so'ng, Servis markazi Buyurtmachiga qurilmani ta'mirlash narxini ma'lum qiladi va u 1 (bir) ish kuni ichida Buyurtmachi tomonidan to'lanishi lozim. Hisob taqdim etilgan kundan 1 (bir) ish kuni ichida Buyurtmachi tomonidan transport xarajatlari uchun 100% oldindan to'lov amalga oshirilmagan bo'lsa, qurilma Servis markaziga yo'naltirilmaydi va CDTI qurilmaning diagnostika qilish va ta'mirlashni rad etadi.

Diagnostika natijalariga ko'ra, Servis markazi Buyurtmachiga 2 (ikki) ish kuni ichida to'lanishi lozim bo'lgan ta'mirlash xarajatlari, zarur hollarda esa sarf materiallari uchun hisob taqdim etadi. Buyurtmachidan Servis markazining joriy hisob raqamiga mablag' kelib tushgandan so'ng, ikkinchisi qurilmani ta'mirlashni boshlaydi. Agar 2 (ikki) ish kuni ichida Buyurtmachi ta'mirlash va sarflanadigan materiallar uchun 100% oldindan to'lovni amalga oshirmagan bo'lsa, Servis markazi qurilmani ta'mirlamasdan qaytarib beradi, Buyurtmachi esa ilgari to'lagan qurilmani diagnostika qilish uchun yetkazib berish transport xarajatlarini qaytarib berilmaydi.

Qurilmani diagnostikaga yetkazish uchun Buyurtmachi tomonidan to'langan transport xarajatlari qaytarib berilmaydi. Buyurtmachi transport xarajatlarini va\yoki foydalanish uchun taqdim etilgan qurilmani ta'mirlash xarajatlarini to'lamagan taqdirda, qurilma zarur ta'mirlash ishlarining ro'yxatini belgilash uchun diagnostika qilinishi lozim, shundan so'ng Buyurtmachi shartnoma shartlariga muvofiq transport xarajatlari, ta'mirlash ishlari narxini qoplash va\yoki qurilmaning to'liq narxini to'lashni o'z zimmasiga oladi.

5.9. Buyurtmachi shartnoma bo'yicha to'lovni to'liq amalga oshirishi shart. Buyurtmachi tomonidan 100% oldindan to'lov amalga oshirilmagan taqdirda, shartnoma shartlariga muvofiq ushbu majburiyatlar Buyurtmachi tomonidan bajarilishi kerak bo'lgan paytdan boshlab, Buyurtmachi shartnomaga muvofiq o'z majburiyatlarini to'liq bajarguniga qadar CDTI Buyurtmachiga xizmat ko'rsatishni to'xtatib turish huquqiga ega.

5.10. Shartnoma shartlari bajarilgan taqdirda, moliyaviy hujjatlar Buyurtmachiga O'zbekiston qonunchiligiga muvofiq har qanday usulda yuborilishi mumkin.

6. MAXFIYLIK.

6.1. Tomonlar bir-biri uchun mo'ljallangan hujjatlarda maxfiy deya ta'riflangan Shartnoma shartlari, Shaxsiy Kabinetda aks etgan xizmatlar va\yoki tarif rejalarini, shuningdek, hujjatlarda Tomonlar maxfiy deya ta'riflangan Tomonlar va ularning faoliyati to'g'risidagi axborotni uchinchi tomonga bermasliklari lozim.

6.2. Xizmat ko'rsatish sifatini yaxshilash maqsadida CDTI Buyurtmachi bilan o'tkazilgan telefon suhbatlarini yozib olish huquqiga ega.

6.3. O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligi talablariga muvofiq axborotni oshkor qilish majburiyatlarni buzish hisoblanmaydi. CDTI Buyurtmachi oldidagi majburiyatlarni bajarish uchun CDTI bilan tuzilgan shartnoma asosida ishlaydigan uchinchi shaxslarga axborotni taqdim etishi Shartnoma shartlarining buzilishi sanalmaydi. CDTI Buyurtmachining "SMART Business" dasturidan foydalanishida aks ettirilgan hajm, tur, faoliyat va boshqa shu kabi ma'lumotlarning maxfiyligini va oshkor etilmasligini kafolatlaydi, O'zbekiston qonunchiligida nazarda tutilgan hollar

bundan mustasno. Buyurtmachi tomonidan saytda ommaviy shaklda taqdim etilgan ma'lumotlar uchun CDTI javobgar emas.

7. SHAXSIY MA'LUMOTLAR.

7.1. Buyurtmachi ro'yxatdan o'tish paytida Shaxsiy Kabinetda ko'rsatilgan shaxsiy ma'lumotlar (famiyasi, ismi, otasining ismi, tug'ilgan sanasi, pasport ma'lumotlari, jinsi, kasbi, uyali telefonlari, elektron pochta manzili, yuridik shaxs, yakka tartibdagi tadbirkor to'g'risidagi ro'yxatga olish ma'lumotlari, Buyurtmachining manzili va boshqalar) ning qayta ishlanishiga ixtiyoriy ravishda rozilik beradi. Bunda Buyurtmachining xohish-irodasini qo'shimcha ravishda tasdiqlash uchun yozma shakl yoki boshqa dalillar talab qilinmaydi. Buyurtmachi uning roziligi aniq, formatlanmagan va ongli ekanligini tasdiqlaydi. Buyurtmachi xizmatlarni rad etguniga qadar shaxsiy ma'lumotlarni qayta ishlashga roziligi CDTI manziliga xat yuborish orqali ma'lumotlardan foydalanishni to'xtatish sanasidan kamida 30 (o'ttiz) kalendar kungacha amal qiladi.

7.2. Shartnoma ijrosini ta'minlash va xizmatlar to'g'risida ma'lumot berish maqsadida Shaxsiy ma'lumotlarni qayta ishlash ularni saqlash, qayta ishlash, depersonalizatsiyalash, bloklash va yo'q qilishni o'z ichiga oladi.

7.3. Davomat statistikasini yuritish maqsadida IP-manzil, domen nomi, brauzer turi va operatsion tizim, tashrif sanasi va vaqti yig'iladi hamda depersonalizatsiyalangan holda saqlanadi.

7.4. CDTI shaxsiy ma'lumotlardan marketing, reklama va axborot maqsadlarida foydalanish huquqiga ega: tanlovlar va aksiyalar to'g'risida ma'lumot berish; yangiliklar va biznes takliflarni yuborish; statistik ma'lumotlarni tahlil qilish asosida saytni personallashtirish.

7.5. Buyurtmachi elektron pochta xabarlari, SMS-xabarlar, tizim xabarlari, messenjerlardagi xabarlar yoki boshqa shunga o'xshash aloqa vositalari, telefon qo'ng'iroqlari, shu jumladan: yangiliklar, reklama aksiyalari, voqealar to'g'risida bildirishnoma kabilarni qabul qilishga rozilik beradi.

7.6. Buyurtmachi, ushbu Ofertada ko'rsatilgan maqsadlarni amalga oshirish uchun zarur bo'lsa, uning shaxsiy ma'lumotlari uchinchi shaxslarga berilishiga rozilik bildiradi. Buyurtmachi CDTI va uning kontragentlari shaxsiy ma'lumotlarini qayta ishlashga rozilik bildiradi va ruxsat beradi.

7.7. Agar Buyurtmachi uchinchi shaxslarning shaxsiy ma'lumotlarini taqdim etsa, uchinchi tomonni bunday ma'lumotlardan foydalanish to'g'risida xabardor qilishi va tegishli rozilikni olishi lozim.

7.8. Buyurtmachi pochta jo'natmalarini olishdan yozma ravishda voz kechishga va (yoki) CDTIning yozma ravishda xabardor qilib, o'zi to'plagan barcha shaxsiy ma'lumotlarni yo'q qilishni talab qilishga haqlidir. Buyurtmachi shaxsiy ma'lumotlarni yo'q qilish to'g'risidagi talabni yuborgan taqdirda, mazkur Shartnoma CDTI tomonidan suddan tashqari bir tomonlama tartibda bekor qilingan hisoblanadi, bu esa CDTIning "SMART Business" dasturidan foydalanish huquqini to'xtatish, tizimda ishlash va xizmatlarni qabul qilishni bekor qilishga olib keladi.

8. KAFOLATLAR.

8.1. Shartnoma muddati davomida har qanday nosozlik va xatolar yuzaga kelsa, CDTI ularni imkon qadar tezroq bartaraf etish uchun barcha sa'y-harakatlarni amalga oshiradi. Shu bilan birga, u xatoliklar va nosozliklar, shu jumladan, dasturiy ta'minot ishida yuzaga keladigan buzilishlar uchun javobgar sanalmaydi.

8.2. Buyurtmachi Shartnomani ixtiyoriy ravishda tuzadi, shu bilan birga Shartnoma shartlari bilan to'liq tanishib chiqadi, Shartnoma mavzusini, Shartnoma tuzish va ijro etish bilan bog'liq harakatlarining ahamiyati va oqibatlarini tushunadi.

8.3. Buyurtmachi to'lov hujjatlarini ro'yxatdan o'tkazish va rasmiylashtirishda ishonchli ma'lumotlarni, shu jumladan, shaxsiy ma'lumotlarini ko'rsatganligini tasdiqlaydi va kafolatlaydi, shartnomani tuzish va bajarish uchun zarur bo'lgan barcha huquq va vakolatlarga ega ekanligini kafolatlaydi.

9. FAVQULODDA KUTILMAGAN VAZIYATLAR.

9.1. Shartnoma bo'yicha majburiyatlarning qisman yoki to'liq bajarilmasligi favqulodda vaziyatlar, ya'ni bo'ronli shamol, momaqaldiroq, tabiiy yong'inlar, suv toshqinlari, zilzilalar, urushlar, hukumat va qonun chiqaruvchi organlarning harakatlari va boshqa holatlar tufayli yuzaga kelgan va Tomonlar ularni qandaydir chora-tadbirlar orqali oldindan ko'ra bilishi yoki oldini olishi imkonsiz bo'lgan va bu holatlar Shartnoma bo'yicha majburiyatlarning bajarilishiga bevosita ta'sir qilgan bo'lsa, Tomonlar majburiyatlarini qisman yoki to'liq bajarmaganligi uchun javobgarlikdan ozod qilinadi. Shu bilan birga, Shartnoma bo'yicha majburiyatlarning bajarilishi favqulodda vaziyatlar sodir bo'lgan vaqtga mutanosib ravishda kechiktiriladi.

9.2. Favqulodda vaziyat tufayli Shartnoma bo'yicha majburiyatlarini bajara olmagan Tomon ikkinchi Tomonga bunday holatning boshlanishi va (yoki) tugashi haqida darhol xabar berishi, bunday holatlar mavjudligini, ularning



davomiyligini va bunday holatlar Shartnomaning bajarilishiga bevosita ta'sir qilayotganini isbotlashi lozim. Shuningdek, majburiyatlarini bajarish imkonsizligi yuzaga kelgan Tomon favqulodda vaziyat sodir bo'la boshlaganidan 15 (o'n besh) kalendar kundan kechiktirmay boshqa Tomonga favqulodda vaziyatni tasdiqlovchi vakolatli manbalardan hujjat taqdim etishi shart. Favqulodda vaziyatlar to'g'risida o'z vaqtida xabar bermaslik tegishli Tomonni ushbu holatlar oqibatida o'z majburiyatlarini bajarmaganligi uchun javobgarlikdan ozod bo'lish huquqidan mahrum qiladi.

9.3. Favqulodda vaziyat 2 (ikki) oydan ortiq davom etgan yoki bunday vaziyat yuzaga kelganida, shu muddatdan ortiqroq davom etishini taxmin qilish uchun yetarli asos bo'lgan holatda, Tomonlar Shartnomani ijro etish va kelishuvga erishish uchun maqbul usullarni aniqlash maqsadida imkon qadar qisqa vaqt ichida muzokaralar olib borishadi.

10. TOMONLARNING JAVOBGARLIGI.

10.1. Shartnoma bo'yicha o'z majburiyatlarini bajarmaganlik yoki lozim darajada bajarmaganlik uchun tomonlar O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligi va mazkur Shartnoma shartlariga muvofiq javobgar sanaladi.

10.2. Saytga kirish uchun parolni saqlash va uni uchinchi shaxslarga bermaslik Buyurtmachining zimmasida.

10.3. Agar mazkur Shartnoma shartlari buzilgan bo'lsa, Buyurtmachi CDTI tomonidan yetkazilgan haqiqiy zarar qiymati doirasida javobgar sanaladi.

10.4. CDTI Shartnomaga muvofiq quyidagi holatlar bo'yicha hech qanday javobgarlikni o'z zimmasiga olmaydi:

- a. xaridor va\yoki uchinchi shaxslarning harakatlari\harakatsizligining bevosita yoki bilvosita natijasi sanalgan har qanday harakatlar\harakatsizlik;
- b. CDTI bunday yo'qotish ehtimolini oldindan ko'ra olish-olmasligidan qat'iy nazar, Buyurtmachi va\yoki uchinchi tomonlarning har qanday bilvosita zararlari va\yoki yo'qotilgan daromadlari;
- c. Buyurtmachi tomonidan Shartnoma bo'yicha tanlangan to'lov shaklidan foydalanish (foydalanish imkonsizligi) va buning har qanday oqibatlarga olib kelishi, shuningdek, Buyurtmachi va\yoki uchinchi shaxslar tomonidan ma'lumotni uzatish\olish uchun har qanday vositalar va\yoki usullardan foydalanish\foydalanish imkonsizligi.

10.5. Buyurtmachi "SMART Business" tomonidan taqdim etilgan servislar yordamida to'g'ridan-to'g'ri yuklab oladigan, yuboradigan, uzatadigan yoki boshqa yo'l bilan taqdim etadigan barcha ma'lumotlar uchun to'liq javobgardir.

10.6. CDTI Buyurtmachi tomonidan Qurilma, shu jumladan, qurilmadan foydalanish qoidalarida belgilab qo'yilgan saqlash yoki foydalanish qoidalarining buzilgani, Buyurtmachining aybi bilan plombalar shikastlangani, shuningdek, tarif rejasiga muvofiq Qurilmaga texnik xizmat ko'rsatish bo'yicha Shartnoma shartlari bilan bog'liq qoidabuzarliklarni aniqlasa, Shartnomani bir tomonlama bekor qilishi mumkin. Shu bilan birga, Buyurtmachi tomonidan Shartnomaga muvofiq to'langan pul qaytarilmaydi.

10.7. Shartnoma shartlariga muvofiq Buyurtmachi tomonidan to'lov o'z vaqtida amalga oshirilmagan taqdirda, Buyurtmachi to'lov kechiktirilgan har bir kun uchun umumiy to'lov qiymatining 0,4% miqdorida jarima to'lashga majburdir, ammo jarima miqdori 40% dan oshmasligi lozim.


10.8. Buyurtmachi mazkur Shartnomani ijro etishdan bosh tortgani yoki qurilmani qaytarish to'g'risidagi talabnomani olganidan so'ng yoki mazkur Shartnomada nazarda tutilgan boshqa asoslarga ko'ra qurilmani qaytarish bo'yicha o'z majburiyatlarini o'z vaqtida bajarmagan taqdirda, Buyurtmachi qurilmaning qabul qilish-topshirish dalolatnomasida aks ettirilgan to'liq narxini, shuningdek, qurilmaning qabul qilish-topshirish dalolatnomasida aks ettirilgan qiymatining 50% (ellik foiz) miqdorida jarima to'lashga majburdir.

10.9. Buyurtmachining aybi bilan foydalanishga topshirilgan qurilma to'liq yoki qisman yo'qolgan, buzilgan yoki shikastlangan taqdirda, Buyurtmachi qurilmaning qabul qilish-topshirish dalolatnomasida aks ettirilgan to'liq narxini qoplash va qurilma narxining 50% miqdorida jarima to'lash majburiyatini zimmasiga oladi.

10.10. Buyurtmachining aybi bilan foydalanishga topshirilgan qurilmalar buzilgan yoki shikastlangan taqdirda, mijoz xizmat ko'rsatish markaziga ta'mirlash uchun yuborgan qurilmaning transport xarajatlari, sarf materiallari va jihozlarni ta'mirlash xarajatlarini to'lash yoki qabul qilish-topshirish Dalolatnomasida aks ettirilgan CDTI xarajatlarining to'liq qiymatini qoplash majburiyatini oladi.

10.11. Buyurtmachining aybi bilan fiskal modul ishdan chiqqan, shikastlangan, yo'qolgan (yo'q qilingan) taqdirda, mijoz BHMning 50% miqdorida CDTI zararini to'lash majburiyatini oladi.

10.12. Agar Buyurtmachi Shartnoma bo'yicha o'z majburiyatlarini bajarmasa, shu jumladan jarima to'lash, muddati o'tgan qarzni to'lash, CDTI Buyurtmachidan ushbu Shartnoma shartlarini lozim darajada bajarmaslik bilan bog'liq yo'qotishlarni qoplashni talab qilishga haqlidir. Zararlar, shuningdek, mustaqil ravishda qilingan xarajatlar va (yoki) uchinchi shaxslarni jarimalar va muddati o'tgan qarzlarni undirishga qaratilgan faoliyatni amalga oshirishga jalb qilish bilan bog'liq xarajatlarni o'z ichiga oladi.



10.13. Mazkur Shartnomaga muvofiq yetkazilgan zararni qoplash bo'yicha barcha jarimalar, xarajatlar va boshqa pul talablari Buyurtmachi tomonidan majburiyat yuklangan kundan boshlab 3 (uch) ish kunidan kechiktirmay, shartnomada talablarni bajarish uchun boshqa muddat nazarda tutilmagan bo'lsa, CDTI joriy hisob raqamiga pul o'tkazish yo'li bilan amalga oshirilishi lozim.

11. NIZOLARNI HAL QILISH.

11.1. Shartnomani bajarish bilan bog'liq har qanday nizolar yoki kelishmovchiliklar yuzaga kelgan taqdirda, Tomonlar o'z vakolatli shaxslari o'rtasida muzokaralar olib borish orqali ularni hal qilish uchun barcha sa'y-harakatlarni amalga oshirishadi.

11.2. Muzokaralar davomida Tomonlar o'zaro kelishuvga erishmagan taqdirda, nizolar majburiy da'vo tartibiga rioya qilgan holda Toshkent tumanlararo iqtisodiy sudida hal etiladi. Da'vo manfaatdor tomonning talablarini hamda Qonunchilik normalari va (yoki) Shartnoma shartlarining ikkinchi Tomon buzganligining dalillarini o'z ichiga olishi lozim. Da'vo yuborilgan Tomon uni ko'rib chiqishi va da'vo yuborilgan kundan boshlab 15 (o'n besh) kalendar kuni ichida ikkinchi Tomonga yozma asosli javob yuborishi shart.

12. SHARTNOMANING AMAL QILISH MUDDATI, UNI TUGATISH UCHUN ASOSLAR.

12.1. Mazkur Shartnoma noma'lum muddatga tuzilgan. "SMART Business" dasturidan foydalanish va xizmatlarni qabul qilish huquqi tanlangan xizmatlar va/yoki tarif rejasiga muvofiq mukofot puli to'langan muddatga taqdim etiladi.

12.2. Mazkur Shartnoma Buyurtmachining tashabbusi bilan CDTIga shartnomani ijro etishdan bir tomonlama voz kechish to'g'risida yozma bildirishnoma yuborilgan kundan 30 (o'ttiz) kalendar kuni ichida tugatilishi mumkin. Buyurtmachining tashabbusi bilan Shartnoma bekor qilingan taqdirda, joriy to'langan davr uchun pul mablag'i qaytarilmaydi.

12.3. Agar Buyurtmachi taqdim etilayotgan xizmatlar uchun to'lanadigan davr boshidan 1 (bir) ish kunidan ortiq to'lov qilmasa, CDTI bir tomonlama suddan tashqari tartibda Buyurtmachini 5 (besh) kalendar kun oldin xabardor qilgan holda Shartnomani bekor qilishga haqlidir.

12.4. CDTI mazkur Shartnomani bir tomonlama suddan tashqari tartibda sabablarini tushuntirmasdan va istalgan vaqtda, tegishli bildirishnomani bekor qilingan sanadan 30 (o'ttiz) kalendar kun oldin har qanday usulda, shu jumladan, elektron pochta manziliga xabar yuborish orqali bekor qilishga haqlidir. Bunda tomonlar xabarnoma yuborilgan va xabar matnidan iborat xat yuborilgan paytdan boshlab Buyurtmachidan xat olingani haqida xabar kelganini tasdiqlamagan holda Buyurtmachi tegishli ravishda xabardor qilingani to'g'risida kelishgan hisoblanadi.

12.5. Buyurtmachi mazkur Shartnomada ko'rsatilgan shartlar va cheklovlarga rioya qilmagan taqdirda, CDTI Shartnomani bir tomonlama suddan tashqari tartibda muddatidan oldin bekor qilishga hamda saytga kirishni va "SMART Business" dasturiy ta'minotidan foydalanishni, shuningdek, qurilmaga texnik xizmat ko'rsatishni darhol to'xtatib qo'yishga va foydalanishga berilgan qurilmani qaytarishni talab qilishga haqlidir.

12.6. Buyurtmachi tomonidan berilgan qurilmadan foydalanish bo'yicha texnik shartlar buzilgani yoki uzatilgan qurilmadan boshqa maqsadlarda foydalanilgani aniqlangan taqdirda, CDTI mazkur Shartnomani bir tomonlama suddan tashqari tartibda zudlik bilan bekor qilishga va Buyurtmachidan zararni qoplashni hamda qabul qilish-topshirish dalolatnomasiga muvofiq Shartnoma bo'yicha berilgan qurilmaning to'liq qiymatini to'lashni talab qilishga haqlidir.

12.7. Foydalanish uchun berilgan qurilmani saqlash yoki undan foydalanish shartlari buzilgani, Buyurtmachining aybi bilan plombalarning zararlangani, shuningdek, Shartnoma shartlarining buzilgani aniqlangan taqdirda, mazkur Shartnoma CDTI tomonidan bir tomonlama suddan tashqari tartibda darhol bekor qilinishi mumkin. Bunda, mazkur Shartnoma bo'yicha CDTI joriy hisob raqamida qolgan mablag'lar qaytarilmaydi.

12.8. Mazkur Shartnomani bekor qilish Buyurtmachini qurilmani qaytarish dalolatnomasi\qurilmaning texnik holati dalolatnomasiga ko'ra qurilmaga zarar yetkazilgani aniqlangan taqdirda yetkazilgan zararni qoplash majburiyatidan ozod qilmaydi. Yuqoridagi to'lovlar Buyurtmachi tomonidan 5 (besh) kalendar kun ichida CDTI hisob raqamiga pul o'tkazish orqali amalga oshirilishi lozim.

12.9. Mazkur Shartnoma bekor qilingan paytdan boshlab Tomonlarning huquqlari va majburiyatlari bekor qilinadi, ammo shartnomani muddatidan oldin bekor qilish Buyurtmachini to'lovni amalga oshirish, qurilmani qaytarish majburiyatidan, shuningdek, uni buzganlik uchun javobgarlikdan ozod qilmaydi.

12.10. Mazkur Shartnoma har qanday sababga ko'ra muddatidan oldin bekor qilingan taqdirda, Buyurtmachi tomonidan mazkur Shartnomaga muvofiq to'langan to'lov qaytarilmaydi.

13. BOSHQA SHARTLAR.

- 13.1. Buyurtmachi Shartnomaga muvofiq o'z huquq va majburiyatlarini uchinchi tomonga topshirishga haqli emas.
- 13.2. Qonun yoki Shartnoma boshqa Tomonni fuqarolik-huquqiy oqibatlar bilan bog'laydigan arizalar, xabarnomalar, bildirishnomalar, talabnomalar yoki boshqa qonuniy ahamiyatga ega xabarlar quyidagi usullardan biri orqali yuborilishi lozim: kuryer orqali yetkazish; buyurtma xat; elektron pochta; faksimil aloqa; telegramma; sayt, shaxsiy kabinetdan foydalanish va boshqa usullar orqali.
- 13.3. Tomonlar yuridik va haqiqiy manzili, mazkur Shartnoma va uning ilovalarida ko'rsatilgan bank va boshqa rekvizitlar o'zgarishi, shuningdek, yuridik shaxs yoki yakka tartibdagi tadbirkor sifatida faoliyatni tugatish, qayta tashkil etish bilan bog'liq har qanday qarorlar to'g'risida bir-biriga 2 (ikki) ish kuni ichida ma'lumot berish majburiyatini olishadi. Tomonlardan biri belgilangan majburiyatni bajarmagan taqdirda, boshqa Tomon bunday harakatsizlik natijasida yuzaga kelgan oqibatlar uchun javobgar emas.
- 13.4. Xizmatlarni taqdim etish tarkibi va shartlarini o'zgartirish, CDTI tomonidan ko'rsatiladigan yangi xizmatlarni kiritish, Oferta-Shartnomani o'zgartirish, xizmatlar narxini o'zgartirish CDTI tomonidan bir tomonlama tartibda amalga oshiriladi va Ofertaning yangi tahriri, o'zgarishlarning kuchga kirishi uchun boshqa muddat belgilanmagan taqdirda, rasmiy www.smart-ecosystem.uz (yoki www.smartpos.uz) veb-saytida e'lon qilingan paytdan boshlab kuchga kiradi. Buyurtmachi mustaqil ravishda rasmiy www.smart-ecosystem.uz (yoki www.smartpos.uz) veb-saytida joylashtirilgan barcha bildirishnomalar va o'zgartirishlar to'g'risidagi e'lonlar bilan tanishishi shart.
- 13.5. Agar Buyurtmachi CDTIga 5 (besh) kalendar kun ichida o'zgartirilgan shartlarni qabul qilishdan bosh tortganligi to'g'risida yozma ravishda xabar bermasa, u holda Shartnoma yangi shartlar asosida uzaytiriladi.
- 13.6. Buyurtmachi yangi shartlarni qabul qilishdan bosh tortgan taqdirda, Shartnoma CDTI o'zgargan shartlarini qabul qilishdan bosh tortganlik to'g'risida yozma bildirishnoma olgan paytdan boshlab bekor qilinadi. Shu bilan birga, tomonlar 1 (bir) ish kuni ichida o'zaro hisob-kitoblarni amalga oshirishadi.
- 13.7. Tomonlar to'lov uchun hisoblar, qabul qilish-topshirish hujjatlari va boshqa hujjatlar elektron hujjat ayirboshlash tizimidan foydalangan holda yuborilishi va imzolanishi mumkinligiga rozilik bildirishadi, bunda hujjatlarni qog'ozda nusxalash talab etilmaydi.
- 13.8. Mazkur Oferta-Shartnomada nazarda tutilmagan hollarda tomonlar O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligiga rioya qilishadi.
- 13.9. Ushbu Oferta-Shartnomadagi biron bir holat yoki bandning haqiqiy emas deb topilishi Oferta-Shartnomaning qolgan holatlari va bandlarining haqiqiy emasligiga olib kelmaydi.
- 13.10. Shartnomani qabul qilishda Buyurtmachi Shartnomaning barcha shartlari bilan so'zsiz roziligini, shuningdek, u Shartnoma va narxlarni, DTdan foydalanish va xizmat ko'rsatish huquqini berish shartlarini o'rganganligini tasdiqlaydi. Ularning barchasi Buyurtmachiga tushunarli bo'lib, u shartlarga rozi va ularni o'zi uchun majburiy deb biladi.

Rekvizitlar

“CENTER FOR DIGITAL TECHNOLOGY AND INNOVATION” AJ
100047, O'zbekiston Respublikasi, Toshkent sh., Yashnabod tumani, Maxtumkuli ko'ch., 81
STIR: 306 344 019
h/r: 2020 8000 0050 6594 4001
“HAMKORBANK” ATB
FAA: 00083 (11468), Bank STIRi: 200 242 936
IFUT: 96120
tel: +998 (71) 200-30-50
e-mail: info@smart-ecosystem.uz
www.smart-ecosystem.uz (yoki www.smartpos.uz)

Bosh direktor
Ko Andrey Nikitovich




Yirik diskontdan iborat xizmatlarning ma’lum bir tarkibini nazarda tutuvchi
TARIF REJALARI VA XIZMATLARI

№	Tarif nomi / tavsifi	Hisobot davri uchun narxi
1	Terminal HUMO / VISA to’lovlarini qabul qilish Shartlar: o A-Pay Business’da ro’yxatdan o’tish, tanlovingizga qarab tarif tanlanadi o Payme, Oson, Paynet, Anor va boshqalarni qabul qilish imkoniyati o Anorbank kredit kartalarini qabul qilish imkoniyati* o Yagona QR orqali HUMO/UZCARD kartasi orqali to’lov – 1,2% o Rossiya kartalari va CIB orqali to’lov qabul qilish imkoniyati * o HUMO savdo ekvayringi – har bir tranzaksiyadan 0.2% o VISA (domestic) savdo ekvayringi – har bir tranzaksiyadan 1% o VISA (international) savdo ekvayringi — har bir tranzaksiyadan 1% (Surcharge 1.5%) o Biznes Terminal kabinetining funksionali: o Bildirishnomalar o Tranzaksiyalar tarixi	Abonent to’lovisiz hisobotlar
2	Oddiy Kichik biznes uchun. Shartlar: o A-Pay Business’da ro’yxatdan o’tish, tarif xohishga qarab tanlanadi o Payme, Oson, Paynet, Anor va boshqalar orqali to’lovni qabul qilish o To’lovga Anorbank kredit kartalarini qabul qilish imkoniyati* o Yagona QR bo’yicha HUMO/UZCARD kartalari bilan to’lov qilish – 1,2% o Rossiya kartalari va SBP orqali to’lovlarni qabul qilish* o HUMO savdo ekvayringi – har bir tranzaksiyadan 0,3% o VISA (domestic) savdo ekvayringi – har bir tranzaksiyadan 1,5% o VISA (international) savdo ekvayringi – har bir tranzaksiyadan 1,5% (1,5% Surcharge) o Business kabineti funksionali cheklangan: o Bildirishnomalar o Katalog o Kassir, shu jumladan Webkassa o Elektron hujjat almashinuvi o SMS orqali 20 ta elektron chek yuborish paketi o 10 ta EHF yuborish paketi o Telegram-bot (hisobotlarni qabul qilish) o Onlayn NKMga xizmat ko’rsatish	BHMning 30%
3	Start Kichik va o’rta biznes uchun. Mijozlar, ombor-savdolar va xodimlarni boshqaring Shartlar: o A-Pay Business’da ro’yxatdan o’tish, tarif xohishga qarab tanlanadi o Payme, Oson, Paynet, Anor va boshqalar orqali to’lovni qabul qilish o To’lovga Anorbank kredit kartalarini qabul qilish imkoniyati* o Yagona QR bo’yicha HUMO/UZCARD kartalari bilan to’lov qilish – 1,2% o Rossiya kartalari va SBP orqali to’lovlarni qabul qilish* o HUMO savdo ekvayringi – har bir tranzaksiyadan 0,2% o VISA (domestic) savdo ekvayringi – har bir tranzaksiyadan 1% o VISA (international) savdo ekvayringi – har bir tranzaksiyadan 1% (1,5% Surcharge) o Business kabineti funksionali imkoniyatlari: o CRM tizim (mijozlarni boshqarish) o Bildirishnomalar o Katalog o Kassir, shu jumladan Webkassa o Ombor hisobi o Hisobotlar o Tashqi billing bilan integratsiya qilish o Elektron hujjat almashinuvi	BHMning 40%
4	Start Fiskal Kichik va o’rta biznes uchun hisobga olish tizimi va integratsiyalashgan	BHMning 40%



	<p>onlayn-NKM. Aniq hisob yuritish va savdolarni fiskallashtirish uchun integratsiyalashgan onlayn-NKMga ega hisob tizimi</p> <p>Shartlar:</p> <ul style="list-style-type: none">○ A-Pay Business'da ro'yxatdan o'tish, tarif xohishga qarab tanlanadi○ Payme, Oson, Paynet, Anor va boshqalar orqali to'lovni qabul qilish○ To'lovga Anorbank kredit kartalarini qabul qilish imkoniyati*○ Yagona QR bo'yicha HUMO/UZCARD kartalari bilan to'lov qilish – 1,2%○ Rossiya kartalari va SBP orqali to'lovlarni qabul qilish*○ HUMO savdo ekvayringi – har bir tranzaksiyadan 0,2%○ VISA (domestic) savdo ekvayringi – har bir tranzaksiyadan 1%○ VISA (international) savdo ekvayringi – har bir tranzaksiyadan 1% (1,5% Surcharge)○ Business kabineti funksionali imkoniyatlari:<ul style="list-style-type: none">○ CRM tizim (mijozlarni boshqarish)○ Bildirishnomalar○ Katalog○ Kassir, shu jumladan Webkassa○ Ombor hisobi○ Hisobotlar○ Markirovkaning tovarga tegishli ekanligini tekshirish○ Fiskal hisobotlar○ Tashqi billing bilan integratsiya qilish○ Elektron hujjat almashinuvi○ SMS orqali 50 ta elektron chek yuborish paketi○ 20 ta EHF yuborish paketi○ Telegram-bot (hisobotlarni qabul qilish)○ Onlayn-NKMga xizmat ko'rsatish	
5	<p>Komfort</p> <p>Barqaror biznes uchun hisob tizimi. Markirovkalangan mahsulot bilan ishlaydigan, mijozlar bazasini rivojlantiradigan, sodiq dasturlaridan foydalanadigan va aksiyalarni ishga tushiradigan biznes uchun juda mos keladi</p> <p>Shartlar:</p> <ul style="list-style-type: none">○ A-Pay Business'da ro'yxatdan o'tish, tarif xohishga qarab tanlanadi○ Payme, Oson, Paynet, Anor va boshqalar orqali to'lovni qabul qilish○ To'lovga Anorbank kredit kartalarini qabul qilish imkoniyati*○ Yagona QR bo'yicha HUMO/UZCARD kartalari bilan to'lov qilish – 1,2%○ Rossiya kartalari va SBP orqali to'lovlarni qabul qilish*○ HUMO savdo ekvayringi – har bir tranzaksiyadan 0,2%○ VISA (domestic) savdo ekvayringi – har bir tranzaksiyadan 1%○ VISA (international) savdo ekvayringi – har bir tranzaksiyadan 1% (1,5% Surcharge)○ Business kabineti funksionali imkoniyatlari:<ul style="list-style-type: none">○ CRM tizim (mijozlarni boshqarish)○ Bildirishnomalar○ Katalog○ Kassir, shu jumladan Webkassa○ Ombor hisobi○ Hisobotlar○ Marketing (aksiyalar, chegirmalar yaratish)○ Tashqi billing bilan integratsiya qilish○ Har bir markirovka hisobi, tuzatish, hisobdan chiqarish○ Elektron hujjat almashinuvi○ SMS orqali 100 ta elektron chek yuborish paketi○ 40 ta EHF yuborish paketi○ Telegram-bot (hisobotlarni qabul qilish)	BHMning 70%
6	<p>Komfort Fiskal</p> <p>Barqaror biznes uchun hisob tizimi. Markirovkalangan mahsulot bilan ishlaydigan, mijozlar bazasini rivojlantiradigan, sodiq dasturlaridan foydalanadigan va aksiyalarni ishga tushiradigan biznes uchun juda mos keladi</p> <p>Shartlar:</p> <ul style="list-style-type: none">○ A-Pay Business'da ro'yxatdan o'tish, tarif xohishga qarab tanlanadi○ Payme, Oson, Paynet, Anor va boshqalar orqali to'lovni qabul qilish○ To'lovga Anorbank kredit kartalarini qabul qilish imkoniyati*○ Yagona QR bo'yicha HUMO/UZCARD kartalari bilan to'lov qilish – 1,2%○ Rossiya kartalari va SBP orqali to'lovlarni qabul qilish*○ HUMO savdo ekvayringi – har bir tranzaksiyadan 0,2%○ VISA (domestic) savdo ekvayringi – har bir tranzaksiyadan 1%○ VISA (international) savdo ekvayringi – har bir tranzaksiyadan 1% (1,5% Surcharge)○ Business kabineti funksionali imkoniyatlari:<ul style="list-style-type: none">○ CRM tizim (mijozlarni boshqarish)○ Bildirishnomalar○ Katalog○ Kassir, shu jumladan Webkassa○ Ombor hisobi○ Hisobotlar○ Fiskal hisobotlar	BHMning 70%



	<ul style="list-style-type: none">○ Marketing (aksiyalar, chegirmalar yaratish)○ Tashqi billing bilan integratsiya qilish○ Tovarni Agregatsiya buyicha chekka qo'shish○ Kassa tranziti (EHFdan chek shakllantirish)○ Har bir markirovka hisobini yuritish, to'g'rilash, ro'yxatdan chiqarish○ Elektron hujjat almashinuvi○ SMS orqali 100 ta elektron chek yuborish paketi○ 40 ta EHF yuborish paketi○ Telegram-bot (hisobotlarni qabul qilish)○ Onlayn-NKMga xizmat ko'rsatish	
--	--	--

* - A-Pay Business'ni Gold, Platinum tariflariga ulanganda amal qiladi

QO'SHIMCHA XIZMATLAR RO'YXATI

№	Xizmat nomi	Narxi
1	Biznes egasining kabineti	bepul (doimiy)
2	FMO bilan integratsiyani davom ettirish uchun DTni joriy etish va qo'llab-quvvatlash bo'yicha xizmatlar	BHMning 50%
3	DTning FMO bilan ishlashi to'xtatilganda ma'lumotlarni arxivlash	BHMning 30%
4	DT ishini tiklash bo'yicha ma'lumotlarni qayta ishlash	BHMning 50%
5	DTga hamrohlik qilishni to'xtatish va keyinchalik ma'lumotlarni FMOga taqdim etish bilan bog'liq xizmatlar	BHMning 80%
6	HUMO DTini joriy qilish	BHMning 50%
7	UZCARD DTini joriy qilish	BHMning 50%
8	Ombor hisobi	1 ta filial uchun hisobot davrida BHMning 25%
9	Tovarni Agregatsiya bo'yicha chekka qo'shish	1 ta filial uchun hisobot davrida BHMning 20%
10	Kassa tranziti (EHFdan chek shakllantirish)	1 ta filial uchun hisobot davrida BHMning 40%
11	Hisobotlar va tahlil	1 ta filial uchun hisobot davrida BHMning 25 %
12	Fiskal hisobotlar (cheklar arxivi)	1 ta filial uchun hisobot davrida BHMning 10%
13	Yuborilgan bitta SMS narxi	120 so'm
14	Yuborilgan bitta EHF narxi	500 so'm
15	Tashqi billing bilan integratsiya	1 ta filial uchun hisobot davrida BHMning 20%
16	SmartHelp katalog shakllantirish	1 ta filial uchun hisobot davrida BHMning 15%

Bosh direktor
Ko Andrey Nikitovich